



VOLUME 10, OCTOBER 2025

ISSN: 3060-4958



The Lingua Spectrum

"A special kind of beauty exists which
is born in language, of language,
and for language."

– GASTON BACHELARD



**UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY**

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz



t.me/thelinguaspectrum



The Lingua Spectrum Journal
Volume 10
(2025 yil oktabr)

TOSHKENT-2025

Ma'sul muharrir:

Raxmonov Azizxon Bositxonovich

– p.f.d., dotsent O'zDJTU Rus filologiyasi fakulteti
dekani

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

– O'zDJTU Ingliz tilini o'qitish metodikasi №3
kafedrası katta o'qituvchisi

LINGUISTICS



The Lingua Spectrum

Cogito, ergo sum

LINGVISTIKA

5

ЛИНГВИСТИКА

177

O'zbek va ingliz badiiy matnlarida onomatopiyaning lingvokulturologik funksiyalari

Amirqulov Dilshod Toshtemirovich

adilshod9001@gmail.com

O'qituvchi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada onomatopiya hodisasining lingvokulturologik jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif onomatopiyaga faqat tovushni aks ettiruvchi fenomen sifatida qarash bilan cheklanmay, uni til va madaniyat o'rtasidagi ko'priki, insonning sezgi-idrok tajribasini ifodalaydigan ramz sifatida ko'rsatadi. Matnda taqlidiy so'zlarning milliy tafakkur, estetik stereotiplar, konseptosfera va etik yetiket bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi onomatopik birliklarning tuzilishi, stilistik va madaniy vazifalari solishtiriladi. Folklor, she'riyat va og'zaki ijodda onomatopik birliklarning obrazlilik, emotsionallik va madaniy kod sifatidagi roli aniqlanadi. Tarjima jarayonida onomatopiyaning madaniy-semiotik xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan muammolar ham muhokama qilinadi. Maqola onomatopiyaning fonetik hodisadan tashqari kognitiv, semantik va madaniy funksiyalarini, milliy mentalitet va stereotiplar bilan bog'liqligini ilmiy asos bilan tasdiqlaydi, shuningdek, tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi uchun tadqiqot maydoni sifatida ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar *Onomatopiya, tovush ramziyligi, lingvokulturologiya, fonosemantika, madaniy stereotip, mentalitet, lingvopragmatika, taqlid so'zlar, ifodali til*

Лингвокультурологические функции ономапии в узбекских и английских художественных текстах

Амиркулов Дилшод Тоштемирович

adilshod9001@gmail.com

Преподаватель,

Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои

Аннотация *В данной статье проводится всесторонний анализ лингвокультурных аспектов феномена ономапии. Автор рассматривает ономапию не только как явление, имитирующее звуки, но и как мост между языком и культурой, отражающий сенсорный и перцептивный опыт человека. В тексте освещается связь подражательных слов с национальным менталитетом, эстетическими стереотипами, концептосферой и этикетом. Сравнивается структура, стилистические и культурные функции ономапических единиц в узбекском и английском языках. Подчеркивается роль ономапических единиц в фольклоре, поэзии и устной традиции, показывая их вклад в образность, эмоциональность и кодирование культуры. Также рассматриваются проблемы перевода, возникающие из-за культурных и семиотических особенностей ономапии. В целом, статья обосновывает когнитивные, семантические и культурные функции ономапии, выходящие за рамки фонетического аспекта, и демонстрирует её тесную связь с национальным менталитетом и*

культурными стереотипами, подчеркивая значимость для лингвистики, лингвокультурологии и теории перевода.

Ключевые слова Ономатопея, звуковой символизм, лингвокультурология, фоносемантика, культурный стереотип, менталитет, лингвопрагматика, звукоподражательные слова, экспрессивный язык

The linguoculturological functions of onomatopoeia in Uzbek and English literary texts

Amirqulov Dilshod Toshtemirovich

adilshod9001@gmail.com

Assistant,

Alisher Navoi Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

Annotation *This article provides a comprehensive analysis of the linguistic and cultural aspects of the phenomenon of onomatopoeia. The author approaches onomatopoeia not merely as a sound-imitating phenomenon but as a bridge between language and culture, reflecting human sensory and perceptual experiences. The text explores the connection of imitative words with national mentality, aesthetic stereotypes, the concept of the conceptsphere, and etiquette. It compares the structure, stylistic, and cultural functions of onomatopoeic units in Uzbek and English. The role of onomatopoeic units in folklore, poetry, and oral tradition is highlighted, showing their contribution to imagery, emotional expression, and cultural coding. The article also addresses the challenges that arise in translation due to the cultural and semiotic characteristics of onomatopoeia. Overall, the study substantiates the cognitive, semantic, and cultural functions of onomatopoeia beyond its phonetic nature and demonstrates its close connection to national mentality and cultural stereotypes, emphasizing its significance for linguistics, lingvoculturology, and translation studies.*

Keywords *Onomatopoeia, sound symbolism, lingvoculturology, phonosemantics, cultural stereotype, mentality, linguo-pragmatics, imitative words, expressive language*

Har bir til nafaqat grammatik strukturalardan iborat, balki madaniyat, mentalitet va inson tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi shuni ta'kidlaydiki, til shaxs, madaniyat va jamiyatning uzviy qismi sifatida ko'riladi. Onomatopiya – ya'ni taqlid so'zlar – aynan shunday jonli til birliklaridan biri bo'lib, ular til va madaniyat, nutq va tafakkur o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajaradi.

Taqlid so'zlar (onomatopik birliklar) tovush, shovqin, harakat, holat kabi tashqi real hodisalarning nutqda ifodalangan shakli sifatida paydo bo'ladi. Ular inson nutqining timsoli, fonetik, stilistik va mental tabiatdagi obrazlarni yaratishda faol ishtirok etadi.

Onomatopiyaning lingvokulturologik ahamiyati gap ketganda quyidagilarni sanash mumkin. Birinchidan milliy mentalitet va madaniy obrazlar onomatopiya tilga xos tovush tasvirlari orqali madaniyatga xos hissiyot,

kayfiyat, olamga bo'lgan qarashni ifodalaydi. Masalan, tabiatda eshitiladigan tovushlarni taqlid etuvchi so'zlar orqali til egasi o'z muhitini nutqida jonlantiradi. Bu esa o'z navbatida madaniyatdagi tabiatga, hayvonlarga, harakatlarga hurmat, bilish va tasavvur qobiliyatini aks ettiradi.

Ikkinchidan *Lingvomentallik* va nutq tasviri onomatopiya nutqda tovush va nutqiy obrazni taxminan "ko'rinarli shaklda" berish imkonini beradi. Harakat, holat yoki tovush tasviri nutqqa rang-baranglik kiritadi, nutq egasining nutqiy olam obrazini boyitadi.

Uchunchidan Stilistika va pragmatika adabiyotda, qaynoq hikoyalarda, folklorda, og'zaki ijodda taqlid so'zlar nutqga obraz, ritm, emotsionallik qo'shadi. Ular metafora yoki boshqa obrazli til birliklari bilan birga ishlatilganda nutq etkazuvchanligi oshadi. Shuningdek, pragmatik jihatdan ular samimiylik, hissiylik kabi kayfiyatni ifodalashda xizmat qiladi. To'rtinchidan Lingvokulturologik birliklarning turi onomatopik birliklar lingvomadaniy birliklar zanjiriga kiradi (Katanov, 2019). Ramzlar, metaforalar, stereotiplar kabi birliklar qatori, onomatopiya ham madaniyat va tilning semantik axborot tashuvchisi sifatida muhimdir. Masalan, u xalq og'zaki ijodida, folklorda, she'rda – madaniyatni avvalgi va zamonaviy shakllarda aks ettirishda ishtirok etadi.

Taqlid so'z shakllari va struktural xususiyatlari o'zbek tili ingliz tili bilan solishtirma tahlilini ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida

- Tovushga taqlid so'zlar: "inga-inga", "pix-pix", "vov", "uv", "qag'-qag'", "taq", "gurs", "gumbur" kabi so'zlar.
- Harakat va holatga taqlid so'zlar: "yalt", "lip", "lik-lik", "yalp-yalp", "bij-bij" kabi takroriy yoki ritmik tuzilmalar.
- Yakka va takroriy shakllar: takroriy shakllar davomiylik yoki takrorlanish ma'nolarini beradi ("lip-lip", "g'ir-g'ir").
- Joylashish (kontekst): O'zbek tilida taqlid so'zlar ko'proq xalq og'zaki nutqi, folklor,

bolalar nutqi va kundalik muloqotda uchraydi.

Ingliz tilida

- Ingliz tilida onomatopik birliklar ko'pincha qisqa, mahalliy (isolated) shakllarda bo'ladi: "pop", "bang" kabi.
- Stilistik jihatdan reklama, bolalar adabiyoti, multfilmlar, og'ir yoki dramatik effekt beruvchi matnlarda keng qo'llanadi.
- Morfologik jihatdan ingliz tilida onomatopik birliklar odatda interjections (undov tushunchasi bilan yaqindan aloqada) yoki mustaqil so'zlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Endi esa taqlid so'zlarningning lingvomadaniy xususiyatlari o'zbek adabiyoti va madaniyat misollarida ko'rib chiqamiz.

Folklor va xalq og'zaki ijodi – og'zaki hikoyalar, afsonalar, ertaklarda tabiat va hayvon tovushlarini namoyish etishda onomatopiya muhim rol o'ynaydi. Masalan, qushlarning sayrab qo'yishi, yomg'ir tomchilari urishi shovqini, yog'ingarchilik paytidagi "shirr-shirr" tovushi, va hokazo.

Adabiy nutq va she'riyat – O'zbek shoirlari she'rlarida onomatopik effektdan foydalanish nutqni boyitadi, hissiylik, tabiiylik va obrazlilik hosil qiladi.

Nutqdagi obrazlilik va metaforiklik – Onomatopiya ba'zan boshqa obrazli birliklar bilan birlashadi; bu ramziy ma'noni kuchaytiradi. Masalan, "gumbur", "qarsillash", "shurr-shurr" kabi so'zlar vergul bilan ovoz azarining, tabiiy muhitning tasviri bilan bog'lanadi.

Madaniy stereotip va muloqot odobi – Ba'zan taqlid so'zlar madaniyatda ifodalayotgan narsaning hurmatli yoki nozik jihatini namoyish qilish uchun ishlatiladi. Masalan, bolalar bilan gaplashishda yoki tabiatga hurmat ko'rsatishda yumshoq, muloyim taqlid so'zlar qo'llanadi.

Onomatopiya tilning **madaniy-semiyotik** qatlami sifatida xalqning olam haqidagi tasavvurlari, emotsional bahosi va kommunikativ an'analari bilan bog'liq

(Akhmedova, 2021). Lingvokulturologiya onomatopiyani faqat fonetik hodisa emas, balki **ma'no va madaniyat tashuvchisi** sifatida ko'radi. Bu jihatni tahlil qilish uchun konseptosfera, etik yetiket va stereotip tushunchalari muhim nazariy tayanch bo'ladi.

- *Konseptosfera*: Onomatopik birliklar madaniyatning konseptosferasiga kiradi – ya'ni olamni idrok etish, his qilish va tasvirlash bo'yicha xalq tafakkurida shakllangan asosiy obrazlar qatoridandir.
- *Etiket va nutqiy odob*: O'zbek tilida nutq etiketida, muloqot uslubida onomatopik so'zlardan foydalanish nutqning samimiyligi, yaqinligi – o'zaro hurmat, samimiy mehr kabi xotirjam madaniy stereotiplarni uyg'otadi.
- *Madaniy stereotip*: Misol uchun, chimchilab "lip-lip" deb ifodalash bolalarcha, hazilomuz kayfiyatlarga ega bo'lgan nutq stereotipi bilan bog'liq. Bolalar nutqida ko'proq takroriy, yumshoq onomatopiyalar ishlatiladi.

Taqlid so'zlar tilshunoslikning o'ziga xos hodisalaridan biri bo'lib, unda tovush va ma'no o'rtasidagi yaqinlik, hatto tabiiy uyg'unlik seziladi. Bu hodisa til va tafakkur, madaniyat, hissiyot hamda tasviriy vositalar orasidagi murakkab bog'lanishlarni ochib beradi.

Taqlid so'zlarning tilshunoslik va kognitiv nazariy jihatlaridan iboratki, insonning tovushni idrok etishi, uni til tizimidagi fonetik va morfologik birliklarga moslashtirishi, so'ngra shu tovushga ma'no yuklashi tilning o'ziga xos mexanizmidir. Har bir tilning fonologik inventari o'ziga xos bo'lgani uchun bir xil tabiiy tovushlar turli tillarda turlicha ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi "buzz" tovushi fransuz tilida "bzzz" yoki turkiy tillarda "vizz" tarzida berilishi mumkin. Bu jarayon kognitiv jihatdan ham muhim, chunki inson tovushni bevosita idrok etmaydi, balki uni o'z tilidagi mavjud tovush-me'yorlar orqali qayta quradi. Onomatopiya tilning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarda ham muhim rol o'ynaydi. Qadimiy "ding-dong" gipotezasiga ko'ra, tilning dastlabki bosqichida insonlar atrof-

muhitdagi tovushlarni taqlid qilish orqali dastlabki so'zlarni yaratganlar. Bu qarash hozirgi zamon tilshunosligida to'liq qabul qilinmagan bo'lsa-da, unda bir haqiqat mujassam: tovushning inson tafakkuri va nutqiy faoliyatida o'zgacha, semantik ahamiyati bor.

Taqlid so'zlarning kognitiv jihatlaridan orasida sound symbolism – tovush va ma'no orasidagi ramziy aloqadorlik tushunchasi alohida e'tiborga molikdir. Ba'zan so'zning fonetik shakli idrok qilinayotgan hodisani tasvirlash bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, "crash" yoki "clang" kabi so'zlarda "k" va "g" kabi portlovchi undoshlar zarba yoki qattiq shovqin hissini uyg'otadi. Bunday bog'lanish tilning tasodifiy emas, balki qisman iconic (belgili) xususiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Nutqda onomatopiya poetik va stilistik effektlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. She'riyat va adabiy asarlarda takroriy strukturalar – "lip-lip", "gumbur-gumbur", "shirr-shirr" – tovushning davomiyligi, intensivligi, jarangdorligi va obrazlilikni kuchaytiradi. Shuningdek, onomatopik birliklar metaforik kengayishga ham ega bo'lib, masalan, "vroom" so'zi nafaqat motor ovozi, balki tezlik va harakat dinamikasini bildiradi.

Lingvokulturologik jihatdan onomatopiya madaniyatning "tovushli tasviri" sifatida qaraladi. Har bir xalqning tabiiy muhitga, hayvonot dunyosiga, iqlimga, shuningdek, estetik did va madaniy urf-odatlariga munosabati uning onomatopik lug'atida aks etadi. Masalan, qishloq muhitida yashovchi xalqning nutqida qushlar sayrashi, yomg'ir shovqini, shamol shiviriga oid onomatopiyalar ko'p uchrasa, shahar madaniyatida texnik ovozlari – mashina, sirena, signallar – ko'proq ifodalanadi.

Onomatopiyaning tarjimasi lingvokulturologik jihatdan eng murakkab jarayonlardan biridir. Har bir tilning fonetik imkoniyatlari va madaniy stereotiplari turlicha bo'lgani uchun, ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish qiyin bo'ladi (Bredin, 1996). Tarjimon yaqin ovoqli birliklardan, sinonim yoki

parafraslardan foydalanishga majbur bo'ladi. Masalan, yapon tilida juda boy bo'lgan mimetik-onomatopik so'zlar ko'pincha boshqa tillarga shunchaki izoh yoki tavsif orqali o'tkaziladi.

Madaniy diversifikatsiya onomatopik lug'atda yaqqol ko'rinadi. Masalan, soatning "tick-tock" ovozi ingliz tilida shunday, ammo italyanchada "tic-tac", hind tilida "tik-tik" tarzida qayd etiladi. Bu turli fonetik va idrok me'yorlarining, madaniy filtrlarning mavjudligini ko'rsatadi. Hayvon ovozlari ham turlicha: itning ovozi ingliz tilida "woof-woof", turkiy tillarda "hav-hav", fransuz tilida "ouaf-ouaf" tarzida ifodalanadi.

Lingvokulturologiya nuqtai nazaridan qaralganda, onomatopik birliklar konseptosferaning ovozga oid qatlamini tashkil qiladi. Ular insonning dunyoni eshitish orqali idrok etish tarzini va shu tajribani madaniy kodga aylantirish usulini ko'rsatadi. Ayrim onomatopiyalar folklor, ertaklar, qo'shiqlar, she'riy asarlarda arxetipik obrazga aylanib, kollektiv xotira va madaniyatning ajralmas qismiga kiradi.

Shuningdek, onomatopiya madaniy stereotiplarni shakllantiradi. Masalan, "lip-lip" kabi yumshoq onomatopiyalar bolalik, quvonch, mehr-muhabbat tasavvurini uyg'otadi, "gumbur-gumbur", "do'q-do'q" kabi tovushlar kuch, shovqin, jang va xavf obrazlari bilan bog'lanadi. Bu stereotiplar tilning madaniy "tovush repertuari"ni tashkil etadi.

Demak, onomatopiya tilning fonetik va semantik tizimini, insonning kognitiv idrokini va madaniyatning ovozli manzarasini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois, u tilshunoslik, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, tarjima nazariyasi va lingvokulturologiya uchun boy tadqiqot manbaidir.

Onomatopiya lingvokulturologiyada insonning dunyoni idrok etishidagi akustik tajribasini milliy ong konseptlari bilan bog'laydigan muhim qatlam sifatida qaraladi. Konseptosfera xalqning umumiy dunyoqarashi, qadriyatlari va tajribalarini til vositasida mujassam etuvchi murakkab ma'no

maydonidir. Unda ovoz va tovush bilan bog'liq obrazlar alohida segmentni tashkil etadi va shu segmentning asosiy vositasi onomatopik birliklardir. Masalan, turkiy xalqlarda shovqin va kuch bir-biri bilan uzviy bog'langan tushuncha bo'lib, xalq qo'shiqlarida, marosimlarda, jang tasvirlarida kuch va g'ayrat shovqinli, gumburlovchi obrazlar orqali ifodalanadi. Sharq madaniyatida esa jimjitlik osoyishtalik bilan, gumburlash xavf bilan, shildirash esa hayotning davomiyligi bilan bog'langan qadimiy konseptlardandir. Shunday qilib, onomatopiya faqat tovushni aks ettiruvchi birlik emas, balki milliy tafakkurdagi qadriyat va stereotiplarning tovush orqali ifodalanadigan kodidir.

Nutqdagi etik yetiket onomatopiyaning ishlatilishida ham muhim o'rin tutadi. Ba'zi onomatopik so'zlar norasmiy uslubga xos bo'lib, rasmiy nutqda ishlatilmaydi. Kichik yoshdagi bolalar nutqida hayvonlarning ovozlari bevosita taqlidiy so'zlar bilan ifodalansa, kattalar nutqida ularning adabiy variantlari qo'llanadi. Ba'zi qadimiy marosimlarda hayvon ovozini bevosita tilga olish man etilib, uning boshqa shakldagi ifodasi tanlangan. Bu holat onomatopik birliklarning ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan tartibga solinganligini ko'rsatadi.

Stereotiplar xalqning dunyoni idrok etishdagi barqaror tasavvurlari bo'lib, ular ko'pincha onomatopik birliklar orqali mustahkamlanadi. O'zbek ertaklarida guldiragan daryo yoki shovullagan bo'ron tasvirlari tabiat kuchlarini xavfli, haybatli sifatida qabul qilishga asos bo'lgan qadimiy stereotiplarni namoyish etadi. Yapon tilidagi pika-pika (yaltir-yaltir) yoki zawa-zawa (noaniq shovqin) kabi onomatopiyalar esa shu xalqning estetik stereotiplarini – mayinlik, noziklik va noaniqlikni ifodalaydi. Ko'chmanchi xalqlar madaniyatida gumbur-gumbur, dup-dup kabi tovushlar qudrat va jo'shqinlikni bildiruvchi stereotiplar bilan bog'langan.

O'xshash tovushlarni o'xshash ma'nolarda ishlatish an'anasi so'z yoki uning qismlarining turli shaxslar tomonidan

takrorlanishi sifatida tushunilgan. Shu sababli, tovushlarning o'xshashligi natijasida turli, ammo bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar umumlashtirilgan (Amirqulov, 2025). Turli xalqlarda bir xil tovushning turlicha eshitisli va nomlanishi ham onomatopiyaning lingvokulturologik tabiatini ko'rsatadi. Masalan, otning chopishi g'arb tillarida clip-clop tarzida, turkiy tillarda dup-dup, yapon tilida pakka-pakka tarzida ifodalanadi. Yomg'irning yog'ishi yevropa xalqlarida ko'proq taqqillash, sharq xalqlarida esa shildirash bilan tasvirlanadi. Bu farqlar nafaqat fonetik tizimga, balki estetik qadriyat va tabiatga munosabatdagi tafovutlarga ham borib taqaladi.

Zamonaviy lingvokulturologiyada onomatopiya nafaqat fonetik hodisa, balki semantik, kognitiv va madaniy-semiotik jihatdan ham tadqiq qilinadi. U insonning sezgi va idrok orqali tovushni tilga ko'chirish jarayonini, shu jarayonning milliy ong va madaniyatga bog'lanishini yoritadi. Shuning

uchun konseptosfera, etik yetiket va stereotiplar onomatopiya bilan chambarchas aloqada bo'lib, xalqning dunyoni tovush va hissiy tajribalar asosida anglash modeli haqida keng tasavvur beradi.

Taqlid so'zlar tilning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, insonning dunyoni idrok etishidagi akustik tajribasi va madaniy ongining uzviy qismi sifatida namoyon bo'ladi. U konseptosferaning tovushga oid qatlamini shakllantiradi, milliy tafakkur va estetik qadriyatlarni aks ettiradi. Folklor, og'zaki ijod, she'riyat va kundalik nutqda onomatopik birliklar nutqga jonlilik, tabiiylik, emotsionallik beradi, stereotiplarni mustahkamlaydi va madaniy xotirani saqlashga xizmat qiladi. Onomatopiya orqali til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, tovush va ma'no o'rtasidagi tabiiy uyg'unlik yaqqol ko'rinadi. Shu sababli u lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va kognitiv tilshunoslik uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedova, M. Sh. (2021). Onomatopoeic units in Uzbek folklore and their translation into English. *Journal of Uzbek Linguistics*, 5(2), 33-41.
2. Bredin, H. (1996). Onomatopoeia as a figure and a linguistic principle. *New Literary History*, 27(4), 781-804.
3. Katanov, I. N. (2019). Onomatopoeia in the system of expressive means of modern Russian language. *Philology and Culture*, 3(57), 102-108.
4. Toshtemirovich, A. D., 2025. Tilshunoslikda tovushga taqlid (onomatopoetik) nazariyasi va uning ahamiyati. *Hamkor konferensiyalar*, 1(14), 781-785.

CONTENTS

LINGUISTICS		4
Bozorov H.X.	O'zbek xalq ertaklari tilidagi dialektal birliklarning lingvopoetik va funksional tahlili	5
Sattorova F.E.	Muloqotda pragmatik mazmunning ifodalanish usul va vositalari	14
Иплина А.А.	Субстандартная лексика художественного произведения как показатель авторского идиостиля (на материале романа-фэнтэзи Г.А. Долгой «Боги срединного мира»)	19
Amirqulov D.T.	O'zbek va ingliz badiiy matnlarida onomatopiyaning lingvokulturologik funksiyalari	27
Asrorova N.I.	Selecting an Approach and Methods for Corpus-Based Discourse Analysis	33
Ortikova I.Sh.	Theoretical and Practical Dimensions of Translating Specialized Terminology: A Linguistic and Cultural Approach	40
Камбарова М.А.	Лингвоконтрастивный анализ пословиц с компонентом человек (английский, русский)	50
Burxonova M.O.	Tibbiy diskursda kommunikativ strategiyalar: shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotdagi muammolar	57
Бобо-Хожаева А.Л.	Деньги как способ межкультурных и межъязыковых связей	65
Diniqulov A.G.	Arab maqol-matallarida fe'l boblarining ishlatilishi	72
Xakimova Z.Q.	Spontan dialogik nutqda xushmuomalilik strategiyalarining gender aspekti	77
Djabborova Q.A.	Tilda so'zlarning ko'chma ma'nolarining asl ma'noga nisbatan faollashuvi	84
Khayitova F.A.	Toponyms associated with tribal names in Uzbek and English languages	91
Abduraximova N.A.	Emotivlik funksional-semantik kategoriya sifatida. Emotsiya terminologiyasiga doir ilmiy qarashlar	99
Ahadova H.Z.	Modality in cognitive linguistics: meaning and interpretation	108
Nasirdinova D.	Linguistic and pragmatic analysis of terms of address in military discourse	114
Абдуллаева С.Б.	Актуализация концепта «социальное положение» в системе фразеологии разнотипных и неродственных языков	119
Kurbanbaev D.A.	Kognitiv metafora va ramkalar semantikasi asosida konseptual makonni modellashtirish	125
Abduraxmonova R.K.	Nemis tilida yozilgan diniy matnlar tarkibidagi deiktik birliklarning funksional va semantik xususiyatlari	130
Xakimbayeva O.K.	Ingliz agronimlarining etnos lingvomadaniyatida tutgan o'rni	136